

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.G.Sabirdinov	
O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy	6
G.M.Oripova	
Ayol ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri.....	9
M.A.Jo'rayeva	
Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri	13
G.Muhammadjonova	
Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok.....	17
I.A.Эшонқулов	
Тавсифи мушаххаси тазкираҳои Ҳашмати Бухорой.....	21
B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova	
"Bobotog"essesida peyzaj: flora tasvirida badiiylik.....	28
I.A.Эшонқулов,З.П.Аҳмедҷонова	
Ситоиши хирад ва хирадгустарӣ дар "Шоҳнома"-и Ҳаким Фирдавсӣ	34
D.T.Musayeva	
Elizabet Gaskel ijodiga nazar	39
H.H.Қаюмов	
Муаммои шинохти санъати ташхис дар поэтикаи мумтози форсу тоҷик.....	42
Sh.T.Ibragimov	
"Babur the tiger" romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi	47
J.T.Ibragimov	
"Qutadg'u bilig" istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqur mulohaza.....	55
A.A.Akbarov	
Vatanga muhabbatning lirik ifodasi	61

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova	
Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun	66
Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова	
Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок.....	71
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida	81
A.B.Uralov	
Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar	86
Z.A.Davlataliyeva	
Ingliz tili darslarida talabalarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari.....	90
H.A.Абдуллаева	
Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках	95
H.A.Отахонова	
Проблемы общей теории и классификации лингвокультурам	100
B.B.G'aprov	
Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi.....	106
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili.....	112
N.Fidan	
Ellipsis in English text linguistics	115
M.O.Qulmamatova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "boylik/wealth va kambag'allik/poverty" konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari.....	120
N.X.Boboqulova	
Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili	124



UO'K: 811.81.49

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HEAD/BOSH SOMATIK KOMPLEMENTLI MAQOLLARNING
KONSEPTUAL TAHLILIКОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ С СОМАТИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ «HEAD/
ГОЛОВА» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХCONCEPTUAL ANALYSIS OF PROVERBS WITH THE SOMATIC COMPONENT
“HEAD/BOSH” IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGESBoboqulova Nilufar Xayrullo qizi 

Termiz davlat pedagogika instituti “Amaliy ingliz tili” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida “head/bosh” somatik komplementli maqollarning konseptual tahliliga bag'ishlangan. Unda ushbu somatik birlik ishtirokidagi maqollar tanlanib, ularning semantik, strukturaviy va lingvokulturologik xususiyatlari o'rganiladi. Maqolada “head/bosh” komponenti ishtirok etgan maqollarning mazmuni, metaforik ma'nosi hamda ularning xalq mentalitetini aks ettirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi ushbu turkum maqollar o'zaro taqqoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari ochib beriladi. Maqola natijalari lingvistik tadqiqotlar, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik sohalari uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация

Данная статья посвящена концептуальному анализу пословиц с соматическим компонентом “head/голова” в английском и узбекском языках. В работе рассматриваются пословицы с данным соматическим элементом, их семантические, структурные и лингвокультурологические особенности. В статье анализируется смысл, метафорическое значение пословиц с компонентом “head/голова”, а также их роль в отражении народного менталитета. Кроме того, проводится сравнительный анализ данной группы пословиц в английском и узбекском языках, выявляются их общие и различающиеся черты. Результаты исследования могут служить теоретической и практической основой для лингвистических исследований, переводоведения и культурологии.

Abstract

This article is dedicated to the conceptual analysis of proverbs with the somatic component “head/bosh” in English and Uzbek languages. The study examines proverbs containing this somatic element and analyzes their semantic, structural, and linguocultural features. The article explores the meanings and metaphorical implications of proverbs with the “head/bosh” component, as well as their role in reflecting national mentality. Additionally, a comparative analysis of such proverbs in English and Uzbek is conducted to identify their similarities and differences. The results of the study serve as a theoretical and practical basis for linguistic research, translation studies, and cultural studies.

Kalit so'zlar: somatik komponent, bosh/head, maqollar, paremiologiya, lingvokulturologiya, metafora, konseptual tahlil, tarjima, o'zbek va ingliz tillari

Ключевые слова: соматический компонент, head/голова, пословицы, паремиология, лингвокультурология, метафора, концептуальный анализ, перевод, узбекский и английский языки

Key words: somatic component, head/bosh, proverbs, paremiology, linguoculturology, metaphor, conceptual analysis, translation, the Uzbek and English languages.

KIRISH

Har bir xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va hayot tarzi uning tilida o'z aksini topadi. Bu jarayonda maqollar alohida o'rin tutadi, chunki ular xalq donishmandligi, tarixiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan. Maqollar tarkibida somatik komponentlarning ishtiroki esa inson ongining til orqali qanchalik boy ifodalanishini ko'rsatib beradi [3; 65-b.]. Ingliz va o'zbek tillarida “head/bosh” somatik komplementli maqollar tahlili muhim ahamiyatga ega, chunki “head/bosh” inson tanasining asosiy qismi bo'lib, tafakkur, donishmandlik, etakchilik va boshqa ko'plab konseptlarni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada “head/bosh” komponenti ishtirok

TILSHUNOSLIK

etgan maqollar lingvistik, semantik va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi hamda ingliz va o'zbek tillaridagi umumiy va farqli jihatlar o'rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqollarni lingvistik va konseptual jihatdan o'rganish tilshunoslikda uzoq yillardan beri dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Tadqiqotchilar maqollar tarkibida somatik komponentlarning roli, ularning metaforik ma'nolari va madaniy kontekstdagi ahamiyatini keng tahlil qilganlar [6; 58-b.]. Frazologiya va paremiologiya bo'yicha ko'plab tadqiqotlar somatik birliklar, jumladan, **“head/bosh”** komponenti ishtirok etgan iboralar va maqollarning til va madaniyatdagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Masalan, R.Wardhaugh “Investigating Language. Central Problems in Linguistics” nomli kitobida ingliz tilidagi frazeologizmlarning semantik, stilistik va madaniy xususiyatlarini yoritgan [7]. O'zbek tilshunosligida esa G'.Abdurahmonov [2], J.Abdullayev [1] maqollar va ularning semantik tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu manbalar orqali somatik komponentlarning xalq tafakkurini aks ettirishdagi o'rni chuqur o'rganilgan.

Xorijiy tilni o'qitishda kompetensiyaviy yondoshuvning ahamiyatiga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning filologiya fanlari sohasida qo'llaniladigan analiz, konseptual tahlil, chog'ishtirma va boshqa bir qator metod va usullardan samarali foydalanilgan [9; 75-b.].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bosh – tananing bo'yindan yuqori (old) qismida joylashgan a'zo. Bosh inson tanasining eng muhim organlaridan biri, chunki u insonning ruhiy jarayonlari va uning holati uchun javobgar. Bosh tushunchasi o'zbek va ingliz maqollarida eng keng tarqalgan tushunchalardan biri [4; 202-b.]. Bosh somatik komponenti o'zining asosiy ma'nosida o'zbek maqollarida ingliz maqollaridan farqli o'laroq tez-tez ishlatilmaydi. “Head/Bosh” mazmunli maqollar o'zbek xalq maqollari ichida alohida o'rin tutadi. Bu maqollar odatda insonning aqliy qobiliyati, rahbarlik fazilatlarini, mulohaza qilish qobiliyati va hayotiy tajriba kabi konseptlarni ifodalaydi:

“Aql va idrok” konsepti. Ko'plab maqollar boshni aql va idrok bilan bog'laydi: **“Bosh toshga tegsa aql boshga kelar”** maqoli inson hayotidagi tajribalar, qiyinchiliklar va ularning natijasida paydo bo'ladigan aql va idrokni ifodalaydi. Bu maqolda **bosh** somatik komponenti orqali jismoniy tajriba va hissiyotlarda hosil bo'ladigan aqliy o'zgarishlar va o'sish tahlil qilinadi. **“Bosh bir, aql ming”** – Bu maqolda boshning yagona ekanligi, lekin undagi aqlning cheksizligi ta'kidlanadi. Aql insonning eng muhim boyliklaridan biridir. «Aql ming» iborasi orqali insonning aqliy qobiliyatlari va zehniy kuchlari keng qamrovda yoritiladi. Sog'lom odamning aqli ham o'sha darajada kuchli va samarali bo'ladi. Ingliz tilida esa **“You can't put brains into an empty head”** maqoli inson intellekti, bilim olish qobiliyati va shaxsiy rivojlanishning cheklovlari haqida fikr yuritadi. Maqol donolik, aql-idrok va ta'lim olishning tashqi harakatlar orqali majburiy tarzda amalga oshirib bo'lmazligini ta'kidlaydi, donolik va bilim olish jarayonining ixtiyoriy va individual ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, **«Boshda aql bo'lmasa oyoqda tinim yo'q»** maqolida **«bosh»** va **«oyoqlar»** insonning ikkita asosiy qismi sifatida tilga olinadi. «Bosh» inson aqli, fikrlash qobiliyati va mulohazaliligini anglatadi, «oyoqlar» esa harakat va mehnat ramzi sifatida ishlatilgan. Bu erda boshda aql bo'lmazligi (**«aqlsizlik»**) natijasida oyoqlarning dam olmasligi (**«zo'r mehnat»**) kelib chiqadi. Bu o'z-o'zidan shuni anglatadiki, insonning dono qarorlar qabul qilmasligi uni noxush holatlarga va ortiqcha mehnatga duchor qiladi. Maqol insonni mulohazali, aqli va oqil bo'lishga undaydi. Unda «aql» – muvaffaqiyat kaliti sifatida ta'kidlanadi. Bu maqol har bir insonni aql-idrokka tayanib, hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishga hamda tinch va muvaffaqiyatli hayot kechirishga undaydi. **«Gapirgandan gapirmagan yaxshiroq, gapiruvdi, boshiga tegdi tayoq»** maqoli so'zlarni aytishdan oldin mulohaza qilish va aql bilan so'zlashning muhimligi va har bir gapimiz uchun javobgarligimizga e'tibor qaratadi. Mulohaza qilmasdan gapirish natijasida yomon oqibatlarga duch kelishimiz mumkin [5; 48-b.].

“Donolik” konsepti. **“Boshda fikr bo'lmasa, qo'lda ish bo'lmaydi”** maqoli insonning ongli fikrlash (donolik), rejalashtirish va maqsadga erishish uchun o'ylashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqolda aytilganidek, agar insonda aniq maqsad, reja yoki fikr bo'lmasa, jismoniy mehnat natija bermaydi. Bu maqol hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun faqatgina jismoniy mehnat etarli emas, balki to'g'ri va puxta fikrlash, qaror qabul qilish ham zarur ekanligini ko'rsatadi. Fikr va intellektual kuchga ega bo'lish, o'z yo'nalishini belgilashda va harakatlarni samarali yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilida esa **“You can't put a wise head on young**

shoulders” (“Qari bilganni pari bilmas”) maqoli yosh insonlarda *tajriba va donolik* etishmasligi haqidagi haqiqatni ifodalaydi. Bu maqol inson rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biriga asoslanadi: **donolik va tajriba vaqt, xatolar va o’rganish orqali hosil bo’ladi**. Yoshlar tabiatan tajribasiz bo’lishadi, shuning uchun ularga hayot saboqlarini to’g’ridan-to’g’ri «berib bo’lmaydi» [8; 22-b.].

“Rahbarlik va mas’uliyat” konsepti. Bosh konsepti ko’pincha rahbarlik, mas’uliyat va qaror qabul qilish bilan bog’liq: **“Fish goes rotten by the head”** maqoli rahbarlikning yoki yuqori lavozimdagi shaxslarning o’z vazifalarini bajarmasligi butun tizim yoki jamiyatda muammolar keltirib chiqarishi mumkinligini bildiradi. Ya’ni, har qanday tizimdagi muammolar odatda yuqori darajadagi rahbarlarning *mas’uliyatsizligi* yoki *noto’g’ri boshqaruv*dan boshlanadi. Ushbu maqol yuqori lavozimdagilarni o’z mas’uliyatlarini anglashga va yaxshi boshqaruvni ta’minlashga undaydi va rahbarlikning o’ta muhimligi, ularning noto’g’ri harakatlari butun tizimga qanday ta’sir qilishini ko’rsatadi. Shuningdek, **“Boshliq bo’lsang, boshli bo’l”** maqoli rahbarning o’z vazifalarini to’liq va mas’uliyat bilan bajarishi kerakligini ta’kidlaydi. «Boshliq bo’lsang, boshli bo’l» maqoli rahbarlik lavozimiga tayinlangan insonning bu vazifani chin dildan va samimiy bajarishi kerakligini bildiradi. Maqol rahbarlik mas’uliyati, etakchilik fazilatlarini, o’zini boshqarish, javobgarlik, adolat va halollik, qaror qabul qilish va o’rnak bo’lish kabi jihatlarni yoritadi. **«Qo’ling ko’tara olmasa, Cho’qmorni boshingga boylama»** maqolining ikkinchi qismi «Cho’qmorni boshingga boylama» ortiqcha mas’uliyat yoki yukni o’zingizga olmaslik haqida gapiradi. Bu, ayniqsa, insonning o’ziga nisbatan noxush oqibatlarga olib keladigan vaziyatlarda muhimdir. Cho’qmor bu erda katta mas’uliyat yoki qiyinchilikni bildiradi. Bundan tashqari, **“Every herring must hang by its own head”** maqoli chuqur mas’uliyat, javobgarlik va individual natijalar haqidagi tushunchalarni aks ettiradi. **«Herring»** – oddiy inson yoki jamiyatidagi a’zo. **«Hang by its own head»** – insonning o’z qarorlari, xatti-harakatlari yoki xatolari tufayli yuzaga kelgan oqibatlarga javob berishi lozimligini anglatadi. **“Boshi yoqning oshi yo’q”** maqolida «boshi yo’q» iborasi insonning boshqaruv qobiliyatlari va tashkilotchilik ko’nikmalarining yo’qligini anglatadi. Rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyatlari bo’lmagan kishi o’z hayotini tartibga sola olmaydi va natijada «oshi yo’q» holatiga tushib qoladi. Bu, rahbarlik qobiliyatlari va o’zini boshqarish ko’nikmalarining muhimligini ko’rsatadi. Maqol mas’uliyat va javobgarlikni ham ta’kidlaydi. «Boshi yoq» odam mas’uliyatni his qilmaydi va o’z harakatlari uchun javobgar bo’lmaydi. Mas’uliyatli bo’lish orqali inson hayotini tartibga sola oladi va muvaffaqiyatga erishadi [5; 47-b.].

“Sabr va bardoshlilik” konsepti. Bosh konsepti ko’pincha sabr va bardoshlilik bilan ham bog’lanadi: **“Boshingdagi toshni oyoq bilan tepa olmasang, toshni oshirib qo’y”** maqolida muammolarga bardosh berish va ularni sabr bilan engish ta’kidlanadi. **“Boshingda tosh bilan suvlama, ichidagi oltinini ko’rsat”** – bosh bilan bog’liq qiyinchiliklarga chidash va ularni sabr bilan engib o’tish kerakligini bildiradi.

“Bilim va tajriba” konsepti. Ko’pincha bosh bilim va tajriba bilan ham bog’lanadi: **“Boshingda biliming bo’lsa, hech narsa qiyin emas”** – maqolda bilimning ahamiyati va uning muhimligi haqida so’z boradi. **“Bosh tajriba bilan boyiydi”** – tajribaning bosh uchun qanchalik muhimligini bildiradi. **«Gapirgandan gapirmagan yaxshiroq, gapiruvdi, boshiga tegdi tayoq»** maqoli insonning tajribasi va bilimlari orqali ham tushunilishi mumkin. Yaxshi tajribaga ega odam qachon gapirish va qachon sukut saqlash kerakligini biladi. Tajribasiz odam esa noto’g’ri vaqt va joyda gapirib, o’ziga zarar etkazishi mumkin.

“Sog’lik” konsepti. **“Bosh bir, aql ming”** maqoli o’zbek xalq maqollaridan biri bo’lib, uning asosiy mazmuni shundaki, insonning sog’lom bo’lishi, ya’ni uning tanasi va aqliy holati yaxshi bo’lsa, u ming xil zehniy quvvatga ega bo’ladi. Ma’naviy va jismoniy sog’lik insonning asosiy boyligi hisoblanadi. Sog’lom odam o’z hayotida ko’p narsaga erishishi va muammolarni echishda katta yutuqlarga erishishi mumkin. Bu maqol insonlarga sog’lom hayot tarzini targ’ib qilish va sog’lom bo’lishning hayotdagi muvaffaqiyatlar uchun asosiy omil ekanligini eslatadi va u insonning sog’lig’i va aqliy qobiliyatlari o’rtasidagi bog’liqlikni yoritib beradi.

“Ahmoqlik” konsepti. **“Ahmoqning boshiga aql yopishtirib qo’ysang, qo’li bilan ko’chirib tashlaydi”** maqoli insonning tabiati va aqliy qobiliyatlari haqida falsafiy ma’noga ega. Maqolda ahmoqlik va aql o’rtasidagi farq aniq yoritilgan. Ahmoqlik bu erda insonning qobiliyatsizligi, noto’g’ri fikrlash yoki o’zining xatolarini tushunmaslikni bildiradi. Aql esa insonning

TILSHUNOSLIK

to'g'ri fikrlash, to'g'ri qarorlar qabul qilish va murakkab vaziyatlarda mantiqiy echim topa olish qobiliyatini anglatadi. Ingliz tilida **“Big head, little wit”** maqoli ingliz xalq og'zaki ijodida ko'p uchraydigan qisqa va mazmunli maqollardan biri bo'lib, insonning ko'rinishi va ichki fazilatlarini o'rtasidagi nomuvofiqlikni ta'kidlaydi. Ushbu maqol aqlsizlik, ilmsizlik va suhbat jarayonida so'zlarni noo'rin qo'llash darajasi haqida fikr bildiradi [8; 13-b.].

“Kibr” konsepti. **“Noo'rin g'urur boshga balo”** maqolida *g'urur* tushunchasi asosiy o'rinda turadi. G'urur o'ziga bo'lgan hurmat va o'z qadrini bilish kabi ijobiy jihatlarga ega bo'lsa-da, noo'rin va oshirib yuborilgan g'urur kibrga aylanadi. *Kibr* esa insonni o'zini boshqalardan ustun qo'yishga, o'z xatolarini tan olmaslikka va boshqalar bilan noto'g'ri munosabatda bo'lishga undaydi [5; 19-b.].

“Sukut” konsepti. **«Gapirgandan gapirmagan yaxshiroq, gapiruvdi, boshiga tegdi tayoq»** maqolining birinchi qismi «Gapirgandan gapirmagan yaxshiroq» – insonning so'zlash va sukunatda bo'lishi o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Bu erda suhbat va sukutning ijtimoiy va shaxsiy jihatlari muhim rol o'ynaydi. Gapirish har doim yaxshi emasligi, ba'zan sukut saqlash yaxshiroq ekanligi haqida signal beradi.

“So'zning kuch-qudrati” konsepti. **«Gapirgandan gapirmagan yaxshiroq, gapiruvdi, boshiga tegdi tayoq»** maqolida «gapiruvdi, boshiga tegdi tayoq» qismi – so'zning noto'g'ri ishlatilishi yoki noto'g'ri vaziyatda gapirilishi natijasida kelib chiqadigan oqibatlarni yoritadi. So'zlar juda kuchli qurol bo'lishi va noto'g'ri qabul qilinishi yoki kimgadir zarar etkazishi mumkin.

“O'z-o'zini baholash” konsepti. **«Qo'ling ko'tara olmasa, Cho'qmorni boshingga boylama»** maqoli insonning o'z imkoniyatlarini real baholash zarurligini ta'kidlaydi. **«Qo'ling ko'tara olmasa»** iborasi orqali inson o'z kuchi va imkoniyatlarini yaxshi bilishi kerakligini, bu imkoniyatlar doirasida harakat qilishini anglatadi. O'zini ortiqcha kuch bilan sinash, haddan tashqari katta mas'uliyat yoki vazifalarni olish xavfli bo'lishi mumkin.

“Kamchilik (nuqson)” konsepti. **«Qo'ling ko'tara olmasa, Cho'qmorni boshingga boylama»** maqoli orqali inson o'z kamchiliklarini bilib, ularni inobatga olishi lozimligi ta'kidlanadi. Bu maqol orqali insonning o'z kamchiliklarini tan olish va ularga mos ravishda harakat qilish muhimligi nazarda tutilgan. Boshqalar oldida hijolat chekmaslik uchun o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash lozim.

“Birdamlik” konsepti. **“Er – bosh, Xotin – bo'yin”** maqolining birinchi qismi «Er-bosh» erning uydagi rahbarligi yoki «bosh» rolini bildiradi, «xotin-bo'yin» qismi esa xotinning erga bo'lgan qo'llab-quvvatlovi, ya'ni uy-joy va oilaviy ishlarni boshqarishga yordam berishdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Maqolda erkak va ayol o'rtasidagi hamkorlik va bir-biriga tayanish ko'rsatilgan. **“Bosh bir bo'lsa, qo'l elka tutadi”** maqoli esa jamiyatda rahbarning yoki boshqaruvchi shaxsning ahamiyatini ta'kidlaydi. Boshqaruvchi (bosh) barcha ishlarni tashkil etish va yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi, lekin uning muvaffaqiyati qo'l (yordamchilar yoki ishchilar) va «yelka» (quvvat beruvchilar) tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga bog'liqdir. Bu maqol ijtimoiy tizimda hamkorlik va guruh ishlashining zarurligini ko'rsatadi. Har bir a'zo o'zining rolini o'ynab, umumiy maqsadga erishishda muhim o'rin tutadi. Ingliz tilida esa **“Two heads are better than one”** (“Bir bosh bosh, ikki bosh mardona” yoki “Bir kalla yaxshi, ikki kalla undan yaxshi”) maqoli ko'proq fikr va qaror qabul qilishda hamkorlik yoki guruh bo'lib ishlashning foydalarini ifodalaydi. Bu maqol, biror masala yoki muammoni hal qilishda bir insonning fikrlari va qarorlaridan ko'ra, ikki yoki undan ko'proq insonning fikrlari va yondashuvlari samaraliroq va to'liqroq bo'lishini anglatadi. Umuman olganda, bu maqol jamiyatda hamkorlik, birgalikda ishlash va fikrlarni birlashtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

“Mehnatsevarlik” konsepti. **“Boshni cho'zmagan qo'l, ishni ko'rmaydi”** maqoli mehnat, tashabbuskorlik va harakat qilishning muhimligini aks ettiradi. Har qanday muvaffaqiyat yoki natija insonning harakatiga bog'liq, tashabbus va harakat qilingan holdagina, natija kutilishi mumkin. Bu maqol **mehnatsevarlik** va **tashabbuskorlik** kabi qadriyatlarni ta'kidlaydi [8; 11-b.].

“Dangasalik” konsepti. Ingliz tilida **«A lazy man's head is full of schemes»** maqoli dangasalik, ijodkorlik va insonning tabiiy moyilliklari haqida qiziqarli mulohazalarni bildiradi. U dangasa odamning maqsadiga erishishda o'z mehnatini qisqartirish uchun o'ylagan hiyla-nayranglari va rejaları haqida gapiradi. O'zbek tilida esa **«Dangasaning boshi dardga to'la»** maqolida dangasalar o'z dangasaliklari tufayli muammolar va qiyinchiliklarga duch kelishi, yoki **«Dangasaning boshi bahona topadi»** maqolida dangasa inson har doim ish qilmaslik uchun

sabab yoki bahona izlashi olg'a suriladi. Ushbu maqollardagi *bosh* somatik komponenti dangasalikning salbiy tomonlarini aniq va ramziy ifodalaydi. Shuningdek, ***Too much bed makes a dull head*** ingliz maqolida ***«Too much bed»*** faqatgina uxlashni emas, balki dangasalik, mehnat qilmaslik yoki faoliyatdan qochishni ifodalaydi. ***«A dull head»*** bu nafaqat aqlning sustligi, balki hayotiy samaradorlikning yo'qligi, passiv fikrlashni anglatadi. Maqol kontekstdan kelib chiqib, shaxsiy intizom va faoliyatni qadrlashni tavsiya qiladi. Mehnat bilan band bo'lish ruhiy va jismoniy tetiklikni saqlashning muhimligiga ishora qiladi [10; 11-b.].

“Yon bermoq (taslim bo'lmoq)” konsepti. «His wise head gives in» ingliz maqoli ***«Wise head» (dono bosh):*** «head» ko'pincha aql yoki fikrlash qobiliyatini ifodalashda ishlatiladi. Bu erda u shaxsning hayotiy tajribasi va bilimiga ishora qiladi. ***«Gives in» (yon beradi):*** Taslim bo'lish bu erda salbiy emas, balki vaziyatni mantiqiy va oqilona tarzda hal qilish uchun murosaga kelishni anglatadi, bu donolikning bir shakli sifatida tasvirlanadi. ***«His wise head gives in»*** maqoli inson donoligi faqat bilim va tajribada emas, balki murosaga kelish va ziddiyatni bartaraf etish qobiliyatida ham ko'rinishini ifodalaydi. Maqol har qanday vaziyatda kuch ishlatishdan ko'ra, aql va donolik bilan yo'l topishning ahamiyatini yoritadi.

“Fikrlashda xilma-xillik” konsepti. «Each head is a different judgement» maqoli insoniyatning xilma-xilligini va har bir shaxsning o'ziga xos fikrlash tarzini ta'kidlaydi. Har bir insonning fikrlash tarzi, qaror qabul qilish usuli va dunyoqarashi har xil va u uning tajribasi, bilim darajasi va shaxsiy his-tuyg'ularidan kelib chiqadi. Shuning uchun insonlar orasidagi fikrlar xilma-xilligi tabiiy jarayon hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida “Head/bosh” somatik komponentli maqollarni turli xil ma'no va konseptlarda uchratishimiz mumkin. Ushbu somatik komponent inson hayoti va tafakkuridagi muhim tushunchalar qatoriga kiradi. «Bosh» odatda aql, tafakkur, qaror qabul qilish, rahbarlik kabi ma'nolarni anglatadi. Turli xil ko'chim vositalari yordamida “bosh” inson hayotini, ijtimoiy mavqeini yoki muayyan vaziyatdagi liderlikni ifodalaydi. «Bosh» somatik komponenti orqali xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyatlari va turmush tarzi aks etadi va ko'pincha «bosh» hayotiy muammolar, qarorlar va mas'uliyat bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis). Qo'shma gap. – Guliston, 2008. – 143 b.
2. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 247 b.
3. Gadoyeva M.I. Ingliz va o'zbek tillarida somatizmlarning semantik-pragmatik tadqiqi. Filol.fan. dokt. diss. avtoreferati. – Buxoro: 2022. – 70 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
5. Rashidova U.M. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili. (Ko'z, qo'l va yurak komponentli iboralar misolida). Filol.fanlari bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – Samarqand: 2018. – 50 b.
6. Uralova O.P. Ingliz va o'zbek tillarida “Oila” bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturalari. Filol.fanlari bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – Samarqand: 2020. – 58 b.
7. Wardhaugh R. Investigating Language. Central Problems in Linguistics. – Oxford: Blackwell, 1994.
8. Yusupov O'. Ingliz tili grammatikasidan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 37 b.
9. Yusupov U. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
10. Вакк Ф.О. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Таллин: 1964. – 22 с.
11. Городецкая И.Е. Фразеологизмы-соматизмы в русском и французском языках. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск: 2007. – 23 с